


Xorazm viloyatida 2018-yil yanvar-may oylarida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi.

Mamlakatimizda 2018-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirilishi bilan bir qatorda sanoat sohasida ham Davlatimiz tomonidan mavjud korxonalar quvvatlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, kichik biznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash, yangidan tashkil etilayotgan korxonalarga imtiyozlar yaratib berish natijasida Xorazm viloyatida 2018-yilning yanvar-may oylarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2040,1 mlrd.so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 114,6 foizni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibi 2018 yil yanvar-may holatiga (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)




- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish
- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash


Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibi ko'proq qayta ishlash sanoatiga to'g'ri kelib, uning ulushi 94,8 foizni tashkil etdi (2017-yilning yanvar-may oylariga nisbatan o'sish sur'ati 115,2 foiz). Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash ulushi 0,01 foizni (o'sish sur'ati 107,8 foiz), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash ulushi 7,5 foizni (o'sish sur'ati 96,8 foiz), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish ulushi 0,6 foizni (o'sish sur'ati 172,7 foiz) tashkil qiladi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida o'sish darajasi yuqori bo'lgan Xazorasp tumani (2017-yil yanvar-may oyilarga nisbatan 129,6 foiz), Shovot tumani (115,5 foiz), Urganch tumani (114,0), Urganch shahri (107,4 foiz) va Bog'ot tumani (106,0 foiz)ga o'sganini ko'rish mumkin.

2018-yil yanvar-may oylarida shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarish o'sish sur'atlari (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan foizda)




2018-yil yanvar-may oylarida shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi to'g'risida (mlrd.so'mda)



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida yuqori bo'lgan Xazorasp tumani, Urganch shahri, Xonqa va Bog'ot tumanlari xissasiga to'g'ri keladi.

2018-yil yanvar-may oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (% da)




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo'lgan Xazorasp tumani 40,9 foiz, Urganch shahri 23,9 foiz, Xonqa 8,3 foiz, Bog'ot 5,4 foiz, va Shovot tumani 4,3 foizni tashkil qiladi.

2018-yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish.

Iqtisodiy faoliyat turlari	<i>mlrd.so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, foiz hisobida</i>
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	2040,1	114,6
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	0,1	107,8
<i>ulardan:</i>		
Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	0,1	107,8
Qayta ishlash faoliyati	1934,8	115,2
<i>undan:</i>		
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	392,8	101,0
Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	66,7	117,2
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	449,5	102,2
Kiyim ishlab chiqarish	43,2	108,5
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	2,0	101,6

Iqtisodiy faoliyat turlari	<i>mlrd.so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, foiz hisobida</i>
Yog'och va po'kak buyumlar, pohl va to'qish uchun materiallari, ishlab chiqarish	1,7	107,5
Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	4,7	105,2
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,3	107,7
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,01	107,7
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	3,9	105,0
Asosiy farmasevtika	1,8	102,8
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	7,3	107,9
Boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	61,1	108,5
Metallurgiya sanoati	2,8	107,2
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	48,2	132,6
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,3	107,7
Elektr uskunalari ishlab chiqarish	7,6	106,4
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish	40,4	107,6
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	748,3	138,0
Mebel ishlab chiqarish	8,2	109,3
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	38,3	90,5
Mashina va uskunalarini ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	5,8	91,9
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	90,4	96,8
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	14,7	172,7
Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish	1231,6	116,0
<i>shu jumladan:</i>		
oziq-ovqat tovarlari	344,7	107,9
nooziq-ovqat tovarlari	873,3	120,0


2018-yil yanvar-may oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.
(mlrd. so'm)




Viloyatda 1231,6 mlrd. so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2017-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 116,0 foizni tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi
(jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)

2017 yil yanvar-may




2018 yil yanvar-may




- Nooziq-ovqat mahsulotlari
- Oziq-ovqat mahsulotlari

Shahar va tumanlarda 344,7 mlrd.so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari, 873,3 mlrd.so'mlik nooziq-ovqat mollari (2017-yilning yanvar-may oylariga nisbatan mos ravishdda o'sish sur'ati 107,9 foiz va 120,0 foiz) ishlab chiqarildi.


**2018-yil yanvar-may oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.
(foizda)**



2018-yil yanvar-may oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)



2018-yil yanvar-may oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)



Xorazm viloyati statistika boshqarmasi
“Sanoat statistikasi” bo’limi
Nashr uchun ma’sul: K.Kuryazov
Aloqa telefoni (0362) 224-64-99